

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari 235

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari 240

B.X.Tolipov

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati
asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari 245

F.A.Mirzayeva

Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida
"Maktubot" asarining ahamiyati 249

I.M.Arzimatova

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari 254

I.A.Asatulloev

Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari 260

O.M.Karimov

Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar 266

Q.Sulaymonov

Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari 269

A.A.So'fiev

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati 273

M.R.Sodiqova

O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy
ahamiyati (2000-2021-yillar) 278

S.A.Soxibov

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili 282

Q.A.Pulatov

Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil 286

D.E.Normatova

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar 290

O.M.O'sarkulov

O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari 294

G.I.Hashimova

Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy,
siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida 299

I.A.Rakhimov

Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen
when evaluating the performance of the "Mahalla seven" 304

S.P.Tojiboyev

Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari 308

TARIX**F.M.Rahmonberdiyev**

XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi 313

F.M.Rahmonberdiyev

Tarixshunoslikda akademik Bo'riboy Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini
davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar 321

E.A.Botirov

Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigo 328

O.A.Radjabov

Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi 332

S.B.Mamataliyeva

Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi 336

S.I.Yoqubjonov

O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni 342

D.A.Qosimov

Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy



UO'K: 347.72:340.13:316.42

TADBIRKOR SHAXS HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISHNING IJTIMOY ZARURATI

СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ

THE SOCIAL NEED TO ENHANCE THE LEGAL CULTURE OF ENTREPRENEURS

Abduhakim Abdulazizovich So'fiev

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada bugungi davrda tadbirkorlar huquqiy bilim va ko'nikmalarining tarkib topishida ularning huquqiy madaniyati muhim o'rin tutishi, tadbirkor shaxs kasbiy madaniyati tarkibidagi huquqiy madaniyat soha qonunchiligini bilish-anglash-amal qilish tizimining o'zaro aloqadorligida rivojlanishi, tadbirkorlik faoliyati, shuningdek innovatsion-intellektual yo'nalishdagi faoliyat sub'ektlari ijtimoiy, huquqiy davlat tarkib topishidagi funksional vazifalari, ularga bo'lgan bevosita va bilvosita ehtiyojida namoyon bo'lishi haqidagi masalalar yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы значения правовой культуры в формировании правовых знаний и навыков предпринимателей в современных условиях, развития правовой культуры в профессиональной культуре предпринимателя в контексте системы знаний, понимания и применения отраслевого законодательства, функциональных задач предпринимательской деятельности, а также субъектов инновационной и интеллектуальной деятельности в формировании социального, правового государства, их прямых и косвенных потребностей.

Abstract

This article examines the importance of legal culture in developing entrepreneurs' legal knowledge and skills in modern conditions, the development of legal culture in the professional culture of entrepreneurs within the context of the knowledge system, understanding and application of industry legislation, the functional objectives of entrepreneurial activity, as well as the actors of innovative and intellectual activity in the formation of a social, rule-of-law state, and their direct and indirect needs.

Kalit so'zlar: tadbirkor, huquqiy bilim va ko'nikmalar, kasbiy madaniyat, innovatsion-intellektual yo'nalish, huquqiy davlat, bevosita va bilvosita ehtiyoj, novator, tadbirkor shaxs, tadbirkor shaxs huquqiy madaniyati.

Ключевые слова: предприниматель, правовая культура предпринимателя, правовые знания и навыки, профессиональная культура, инновационно-интеллектуальное направление, правовое государство, прямые и косвенные потребности, новатор.

Key words: entrepreneur, legal culture of entrepreneurs, legal knowledge and skills, professional culture, innovative and intellectual direction, rule-of-law state, direct and indirect needs, innovator.

KIRISH

Global rivojlanish davrida tadbirkorlar huquqiy bilim va ko'nikmalarini tarkib topishida ularning huquqiy madaniyati indikatorlari muhim o'rin tutadi. Tadbirkor shaxs kasbiy madaniyati tarkibidagi huquqiy madaniyat soha qonunchiligini bilish-anglash-amal qilish tizimining o'zaro aloqadorligida rivojlanadi. "Tadbirkor", "novator", "tadbirkor shaxs", "tadbirkor shaxs huquqiy madaniyati" kabi tushunchalar birinchi navbatda iqtisodiy asosga ega ekanligini ko'rsak, chuqurroq tahlil qilganimizda bu ijtimoiy hodisa ekanligiga shak-shubhamiz qolmaydi. Tadbirkorlik faoliyati, shuningdek innovatsion-intellektual yo'nalishdagi faoliyat sub'ektlari ijtimoiy, huquqiy davlat tarkib topishidagi funksional vazifalari, ularga bo'lgan bevosita va bilvosita ehtiyojida namoyon bo'ladi. Zamonaviy jamiyatda intellektual faoliyat va innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga fuqarolarimizni keng jalb qilish orqali, ularda nafaqat iqtisodiy faollik, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga erishamiz.

MATERIAL VA TADKIKOT USHLARI, ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirkorlik faoliyati taraqqiyotida markaziy o'rin tutuvchi yo'nalish aholini ish bilan ta'minlash, bu bilan esa fuqarolarning turmush farovonligini oshirishdan iboratligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi fikrimizning davomi sifatida shuni aytilish lozimki, mamlakatimizda

tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar salmog'i dinamik ravishda oshib borayotganligi va bu sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni taqozo etmoqda. Tadbirkorlik faoliyati mamlakatimiz hududida qadimgi davrlardan shakllanib kelgan sohalaridan hisoblanadi. Xususan, yurtimizda tadbirkorlik faoliyati o'zining uzoq va shonli tarixiga ega ekanligini e'tirof etish kerak. Markaziy Osiyo xalqlari turmushida tadbirkorlik tushunchasi nafaqat daromad olish, tirikchilik o'tkazish yoxud ro'zg'or tebratish vositasi, balki o'ziga xos qobiliyat va iste'dodni talab qiladigan faoliyat turi ekanligini kuzatishimiz mumkin. Buyuk Ipak yo'lining Markaziy Osiyo mintaqasidan o'tishi, Amir Temur tuzuklarida tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta'minlashdagi ahamiyatining ta'kidlanishi va Ibn Xoldun singari Sharq olimlari asarlarida ilgari surilgan g'oyalar tadbirkorlik faoliyatining ildizlari juda ham uzoq davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi, "Ibn Xoldun jamiyatning markaziga geografik yoki iqlimiy determinantlarni emas (garchi u ularni ham hisobga olgan bo'lsa ham), balki odamlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning tabiatini qo'ygan" [1] ligi bilan ahamiyatlidir. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi, xalqparvar hokimiyat apparati hamda ta'lim, ilm-fanga katta e'tibor bergan davlatni barqaror rivojlanishni boshidan kechirishini ko'rishimiz mumkin.

Sivilizatsion taraqqiyot ta'sirida G'arbiy Yevropada shakllangan liberalizm g'oyalarida har bir shaxs qadr-qimmat va erk egasi hamda o'z harakatlari uchun mas'ulligi, shaxs erkinligining zaruriy sharti xususiy mulk ekanligi, erkin bozor, erkin raqobat va erkin tadbirkorlik, teng imkoniyatlar bo'lishi lozimligi, hokimiyatlar bo'linishi zarurati, qonun ustuvorligini ta'minlash kerakligi, huquqiy davlat g'oyasini ustuvor bo'lishligi, shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash kabilar ustuvor ahamiyat kasb etgan. Shu o'rinda Jon Lokkning quyidagi fikrlari e'tiborga loyiqdir: "Har birimiz, o'z huquqlarimizni himoya qilishimiz borasida... boshqa kishilarning huquqlarini ham imkon qadar hurmat qilishimiz darkor" [2, 8]. Bu bilan u jamiyatning kollektivizmdan - individualizmga o'tishiga va shaxs huquqlarini mustahkamlanishiga dadil qadam tashlagan. O'sha davrda shakllangan bunday qarashlar jamiyatda tadbirkorlikning o'ziga xos maqomga ega bo'lishida munosib o'rinni egallagan. Bunda tadbirkorlik madaniyati va ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlarini o'zida ifoda etuvchi umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlar, alohida diqqatga sazovordir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi konseptual so'zlari: "Tadbirkorlik faoliyati erkinligini, xususiy mulk daxlsizligini yanada kenroq ta'minlash – oldimizda turgan muhim vazifadir" [3, 94] hamda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning: "inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va hokazolardan iboratdir" [4, 147] degan fikrlari bunga dalolatdir.

Demokratik davlat bozor munosabatlari sharoitida savdo-sotiq va sanoatni boshqarish ishlariga aralashmasligi kerak. Bundan ko'rinadiki, davlat fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy tengligini emas, balki siyosiy va huquqiy tengligini ta'minlashi kerak. Yangi zamon liberalizm tarafdorlari insonning iqtisodiy, shaxsiy va intellektual erkinligi, maqsad va manfaatlarini amalga oshirish yo'lida teng imkoniyat va huquqlarga ega bo'lishi uchun kurashdilar. Bu esa tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining yangi harakatchan kuchlarini to'laroq namoyon bo'lishiga olib keldi. Binobarin, mazkur g'oya Yevropaga tadbirkorlik va biznes yo'lidan har qanday to'siqlarni olib tashlashni o'rgatdi. Shunday qilib, erkinlik bo'lmagan erda tadbirkorlik faoliyati rivojlanmasligi liberalizm vakillari tomonidan asoslab berildi.

Umuman olganda, liberalizm dogmatizm, sxematizmga zid tafakkur tarzidir. Unda o'zgarmas, bir xil me'yor va qoidalar yo'q. Liberalizm sharoitning o'zgarishi bilan tobora takomillashib bordi. U o'z vazifasini o'tab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy institut, me'yor va qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish, hatto ularni o'zgartirishdan ham qo'rqmadi. Liberalizm vakillarining ko'pchiligi klassik merosni o'zgaruvchan sharoitga moslashtirish bilan faol shug'ullandilar. Liberalistik qarashlar tarixiy taraqqiyot davrida jamiyatning barcha sohalarini o'z ichiga qamrab olganini va ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy rang-baranglikning shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday o'zgarishlar silsilasini neoliberalizm, postneoliberalizm kabi oqimlarning shakllanishida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari Maks Veber tomonidan: "Sotsiologizm doirasida neokantizm qiymat tushunchasining tamoyillari shakllantirildi. Keyinchalik u ijtimoiy-ratsional harakatlar nazariyasi va tegishli bilimlarning asosiga aylandi" [5, 204], bu esa o'z navbatida liberal-demokratik hamda ratsional qarashlarning yanada rivojlanishiga olib keldi. Keyingi davrda liberalizm tushunchasi Tolkott Parsonsning "tarkibiy va funksional tahlili doirasida ijtimoiy aloqalarni va ijtimoiy institutlarning ishlashini aniqlash vositasi sifatida umumlashtirilgan uslubiy ma'noga ega bo'ldi" [6, 157].

NATIJALAR

SIYOSAT

Bizning nazarimizda AQSH, Yevropa hatto ba'zi Sharq davlatlarida mazkur g'oyaviy yo'nalishlar asosida qo'lga kiritilgan ijobiy natijalaridan samarali foydalanish o'zining ijobiy natijasini berdi. Buni biz rivojlangan davlatlar tajribasidan anglab olishimiz mumkin. Shu o'rinda Singapur sobiq bosh vaziri Li Kuan Yuning: "Har bir inson jamoat boyligidan adolatli ulush olish huquqiga ega bo'lgan sotsializmga ishonardik. Keyinchalik iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ish natijasidan shaxsiy manfaatdorlik va mehnatni mukofotlash ham juda muhim ekanligini anglab etdik" [7, 56], - degan fikrlaridan hozirgi kunda jahonda shov-shuvga sabab bo'lgan "Singapur mo'jizasi"ning omillarini ko'rishimiz mumkin.

Sobiq Sho'rolar hukmronligi davrida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mulkning yalpi davlat ixtiyorida bo'lishi, xususiy mulkka va fuqarolarning xususiy tadbirkorlik faoliyatiga yo'l qo'ymaslik, har bir odamning hayoti va mehnati to'laligicha davlatga qaram ekanligi, mohiyatan demokratiyaning yo'qligi, yagona kommunistik mafkuraga asoslangan siyosiy totalitarizmning hukmronligi, bozor raqobatlari va mexanizmining yo'qligi oqibatida tug'ilgan tovar taqchilligi sotsialistik tuzumning ajralmas belgilaridan bo'lgan. Binobarin, hammaniki, lekin hech kimniki bo'lmagan sotsialistik mulkchilikni o'rnatish, davlatning zo'rlik ishlatishiga asoslangan edi. Zo'rlikka tayangan bunday munosabatlar asrlar davomida takomillashib kelgan iqtisodiy va huquqiy munosabatlar va ko'nikmalarni barbod qildi. Tarixiy tajriba bunday munosabatlarning muqarrar ravishda inqirozga uchrashini to'la tasdiqladi.

Kishilik tarixining turli ijtimoiy tuzumlarida zo'ravonlik, totalitar, avtoritar boshqarish usullarining vujudga kelishi va tarqalishi natijasida mehnatning ijtimoiy qadr-qimmatiga putur etdi. O'z mehnati mahsulidan tegishli darajada manfaat ko'ra olmagan mehnatkashlar faoliyatida begonalashuv yuzaga keldi. Sho'rolar tuzumi zulmni zo'rlik yo'li bilan yo'qotib, erkin va adolatli hayotni tenglik g'oyasi orqali amalga oshirmoqchi bo'ldi. Bu g'oyaga ko'ra jamiyatdagi barcha shaxs huquq va mavqe jihatlaridan teng bo'lib, mulkiy ortiq-kamlikka da'vo qilmasligi zarur edi. "Umumxalq mulki" degan tushuncha shu tariqa paydo bo'ldi, uni o'z shaxsiy mulki kabi asrab-avaylashga da'vat etildi. Biroq mazkur tuzumning keyingi rivoji biryozlama kechdi. Gap shundaki, boylarga, hatto o'rtahol mulkdorlarga qarshi kurash tez orada farovon yashashga qarshi kurashga aylanib ketdi. Natijada bir tomonlama, kaltabin siyosat tufayli shaxs mulkdan, oxir-oqibat o'z mehnati natijalaridan manfaatdor bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Boshqacha aytganda, mantiqsiz vaziyat yuzaga keldi: fuqarolar o'z manfaatidan "voz kechib," "umumxalq manfaati uchun" ishlashga majbur bo'ldilar. Bu mulkni saqlash, uni yanada rivojlantirish rag'batlantiriladigan bo'ldi.

Ijtimoiy taraqqiyotning bunday rivojlanishi natijasida tashabbus va tashabbuskorlik bo'g'ildi, malakali mehnat unutilayozib, uning o'rnini ishyoqmaslik, loqaydlik, o'zibo'larchilik egallay boshladi. Bu illatlar o'z navbatida ulardan ham katta illat - boqimandalikni keltirib chiqardi. Ishlab chiqarishda mehnat qiladiganlarga nisbatan boshqaradiganlar soni ortib ketdi. Shaxs ichki imkoniyatlari, salohiyati, tashabbusiga e'tibor qilmaslik paydo bo'ldi, hatto tashabbuskorlikni boshqalardan ajralib turish deb talqin qilish odatiy tus oldi. Oqibatda tashabbuskor shaxs intilishlari, xatti-harakati ommaga kulgili, hatto ba'zan zararli ko'rinadigan bo'lib qoldi. Natija shunday bo'ldiki, "Sobiq Ittifoq davrida insonning o'zida bo'lgan qobiliyatini ro'yobga chiqarish darajasi uncha yuqori emas edi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, o'sha davrda kishi o'z ichki salohiyatining atigi 3-4 foizini ishga solish imkoniyatiga ega bo'lgan. Holbuki, bu ko'rsatkich rivojlangan horijiy mamlakatlarda 7-9 foizni tashkil etar edi. Bizda esa boqimandalik kayfiyati hukmron edi" [8, 5].

Asrimizning ikkinchi yarmida "Qayta qurish" shiori ostida inson omili masalasi kun tartibiga chiqdi, shu omil orqali jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish g'oyasi oldinga surildi. Shunga qaramay, inson kapitali poydevorida shaxsning ijtimoiy va iqtisodiy faolligi bilan bir qatorda uning intellektual faoliyati yotishini, o'z navbatida fuqarolarning iqtisodiy faolligini ortishiga olib keladi. Oqibatda inson omili quruq shior bo'lib qolaverdi va kutilgan natijani berolmadi.

Tadbirkorlik masalasi bizning mamlakatimizda sobiq xo'jalik aloqalarining ma'naviy andozalari uzilayotgan, mehnat bozoridagi vaziyat keskinlashayotgan, o'tish davriga xos iqtisodiy tanglik, pulning qadrsizlanishi yuz berib, turmush darajasi pasayishi sodir bo'lgan bir paytda kun tartibiga qo'yildi. "Xalq manfaati", "davlat manfaati", "umumxalq mulki" kabi tushunchalar ta'sirida voyaga etgan fuqarolar tadbirkorlik haqidagi fikr-mulohazalarga, aytib o'tish lozimki, dastlab ishonchsizlik ko'zi bilan qaradi, uni navbatdagi kompaniyabozlik shiori sifatida qabul qilganlar ham bo'ldi.

Yangi taraqqiyot bosqichida iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va modernizatsiyalashga qaratilgan islohotlar natijasida, monopoliyalarga qarshi kurash, tadbirkorlikning zamonaviy

ko'rinishlarining tarkib topishi, ularni huquqiy tomondan tartibga solishning yangicha tizimini ishlab chiqish zarurati kuzatilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirishda davlat organlari va keng jamoatchilik ishtirok etishi liberal-demokratik ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish sohasini muntazam ravishda modernizatsiyalashni ham talab etadi, bunga zarur shart-sharoitni yaratishga tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining o'zlari majbur bo'ladilar.

Tadbirkorlikka oid savollarga javob berganda, gapni tadbirkorlikning xalqimiz tabiatiga xos va mos ustuvor fazilatlaridan biri ekanini ta'kidlashdan boshlamoq to'g'riroq bo'lur edi.

"Tadbirkor shaxs - o'z ishining ustasi, epchil, uddaburon shaxs, ishbilarmon inson. Xalqimiz iborasi bilan aytganda, bunday shaxs ishning ko'zini biladi, faoliyatiga to'g'anoq bo'lib turgan to'siqlarni engib o'tishning uddasidan chiqqa oladi, aqliy mehnat qilib, ko'p foyda olishning samarasidan xabardor bo'ladi" [9, 49-52]. Yuqorida tilga olingan fazilatlar mazmunidan kelib chiqib, "tadbirkor shaxs" - o'z faoliyatini xavf-xatarlarga qo'yib, tavakkalchilik asosida ish ko'radigan individga aytiladi. Tavakkalchilik esa, quyidagi fazilatlarining uyg'unlashuvini talab etadi, bular: mardonalik, sahiylik, jo'mardlik, mehr-oqibatlilik. Ta'kidlash joizki, ilk davrlardan ishbilarmon va savdogar odamlar, ya'ni bugungi kundagi tadbirkorlar jamiyatimiz a'zolari tomonidan doimo obro'-e'tiborda bo'lishgan, hurmatli jamoa vakillari sifatida ko'rilgan, xalq og'zaki ijodida ham ular yoshlarga namuna sifatida ko'rsatilganlar, ya'ni ishbilarmon, faol va qo'li ochiq insonlar kabi badiiy obrazlarni kuzatishimiz mumkin. Mazkur masalaga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Aholida tadbirkorlikka oid zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimini takomillashtirish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta'lim tashkilotlarini yanada keng jalb qilish zarur," [10, 145] - degan fikrlari mazkur masalaning metodologik echimi sifatida kabul qilish mumkin.

Tadbirkor shaxs insoniyat tamadduni taraqqiyoti davrlarida, ya'ni adolatli mamlakat boshqaruvining bosh mezon bo'lgan, xalq tinchligi, farovonligiga katta e'tibor qilingan, tadbirkorlik va bunyodkorlik tamoyillari qo'llab-quvvatlangan tarixiy bosqichlarda ilg'or fikrli, insonparvar va raiyatparvar davlat arboblari, fikr-mulohazasi o'tkir hukmdorlar tomonidan tadbirkorlik munosib baholanib, bunday shaxslarning mehnatiga yarasha taqdirlangani hamda hurmatini joyiga qo'yilgani to'g'risida ma'lumotlar bor. "Tadbirkorlik va unga hamroh bo'lgan faoliyat shakllari va iqtisodiy kategoriyalar shaxs bilan birlikda ko'rib chiqildi. Tadbirkor har doim alohida shaxs bo'lib, pulga, mulkka va savdoga bo'lgan munosabat, mutafakkirlarning fikriga ko'ra, ushbu shaxsning fazilatlariga bog'liq edi" [11,10], degan fikrlar tadbirkorlik va tadbirkor shaxs degan tushunchalar bir-birini to'ldiruvchi, indektik tushunchalar sifatida ko'rishimiz mumkinligini ko'rsatadi.

Masalan, mazkur fikrning hayotiy tasdig'ini Temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan tarixiy davrlardan topish mumkin. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur aytganidek: "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir" [12, 10-11] hamda davlatni boshqarishda to'rt qoidaga amal qilish lozimligini uqtirib, ular: kengash qilish, mashvaratu maslahat orqali masalani hal qilish, qat'iy qaror qabul qilish, ishbilarmonlik (tadbirkorlik), hushyorlik hamda ehtiyotkorlik ekanini ta'kidlab o'tadi.

Binobarin, "Amir Temurning o'zi birinchi navbatda tadbirkor bo'lgan, davlat ishlarini yuritishda tadbirkorlikni qat'iy qaror va hushyorlik bilan uyg'un holda olib borish maqsadga muvofiqligini yaxshi anglagan, bunyodkorlik g'oyalari bilan yashab, otalardan meros qolgan ona tuproqni ozod va obod qilishni o'z millatdoshlari, vatandoshlari, ajdodlari ruhi oldidagi muqaddas burchi deb bilgan" [13, 15]. Demak, tadbirkor shaxs tushunchasi tarixan tarkib topgan ijtimoiy hodisalardan bo'lib, xorij davrlarida turlicha nomlangan bo'lib, mazmun-mohiyatiga ko'ra esa asosan yagona ma'noni o'zida ifoda etgan, ya'ni ishbilarmon (tadbirkor), o'z ishi ustasi bo'lgan sohibkor shaxs, zamonaviy talqinda novator hisoblanadi.

Tadbirkor faqat bozor munosabatlari sharoitida qandaydir mahsulot yoki ish kuchining etishmasligiga emas, balki ularni haddan tashqari ko'pligiga ham tezlik bilan diqqat e'tiborini qaratadigan zehnlilik, ijtimoiy voqelikka munosabat bildiruvchi shaxs hamdir.

Tadbirkorlik-chi? "Tadbirkorlik faoliyati kishilarning tavakkal qilib, mulkiy javobgarlik asosida qonunchilik doirasida tashabbus bilan faoliyat ko'rsatishidir. Bu faoliyat kapital va resurslardan oqilona foydalanish orqali ko'zda tutilgan maqsad - foyda yoki tadbirkorlik daromadini olishga qaratiladi. Bozor iqtisodiyoti erkin tadbirkorlikka, sohibkorlikka asoslangan iqtisodiyotdir. Shuning uchun ham tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun iqtisodiyotda bozor munosabatlari hukmron bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun iqtisodiy faoliyatda erkinlik taqozo etiladi" [14, 146].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan qator asos va sabablarga ko'ra, bozor munosabatlari va mulk dahlsizligiga asoslangan, yangi O'zbekistonda erkin tadbirkorlikni, sohibkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda hamda shakllangan mulkdorlar sinfining muhim bo'g'ini bo'lgan tadbirkorlikni har jihatdan qo'llab-quvvatlashga oid qonun va qarorlar qabul qilinib kelinmoqda. Keyingi yillarda qabul qilingan mazkur yuridik hujjatlar asosiy Qonunimiz bo'lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi bir qator moddalarning uzviy va mantiqiy davomi bo'ldi. Jumladan, 41-moddada: "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli..." [15, 23-35], bundan tashqari 66, 68-moddalarda ham tadbirkorlikka oid normalar keltirilgan.

Bundan kelib chiqadiki, tadbirkorlikning shakllanishi hamda keng quloch yoyishi uchun albatta bir qator erkinliklar kerak bo'ladi. Bular - mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy faollik yo'nalishlari, ishlab topilgan mablag'dan foydalanish usullari mundarijasidagi mustaqillik hamda erkin harakatdir. O'zbek xalqi mustaqillikka erishgach, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot yuritish yo'lini tanladi. Bozor munosabatlarini tashkil etish - bu shunchalik oddiy ish emas, balki o'ta murakkab, kutilmagan natijalarni keltirib chiqaradigan, davlat rahbaridan aniq hisob-kitobni, zukkolikni, shijoatni, ulkan ma'naviy jasoratni talab etadigan, mamlakat hayotida katta tarixiy burilish yasaydigan mas'uliyatli ishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://dzen.ru/a/YOImmYW3RyS07Kyz?experiment=931376>
2. Джон Локк Избранные философские произведения (в 2-х томах) - Москва: Соцэкгиз, 1960. - С. 8.
3. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi (3-jild) - Toshkent: O'zbekiston, 2019. - B. 94.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari - Toshkent: O'zbekiston, 1997. - B. 147.
5. М.Вебер. Протестантская этика и дух капитализма // Избранные произведения - Москва: Прогресс, 1990. - С. 204.
6. Т. Парсонс. О структуре социального действия - Москва: Академ.проект, 2002. - С. 157.
7. Rahmatov M.A., Zaripov B.Z. Iste'dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir - Toshkent: Zamin Nashr, 2019. - B. 56.
8. Mo'minov N., Mo'minova Sh., Jo'raboev A. Kichik va o'rta biznesda tadbirkorlikning huquqiy o'rni. - Toshkent: O'zRFA Zamonaviy informatsion texnologiyalari ilmiy markazi, 2001. - B. 5.
9. Ganiev B.S. [O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatlari](#) // [Ilmiy xabarnoma](#). Научный вестник. / 2015. № 4. - B. 49-52.
10. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 145.
11. Дудар Т.Е. Предпринимательство: культурфилософский и антропологический подход. Автореферат диссертации на соискание степени кандидата философских наук. - С-Петербург: 2005. - С. 10.
12. Amir Temur o'g'itlari. - Toshkent: Navro'z, 1992. - B. 10-11.
13. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q - Toshkent: Sharq, 1998. - B. 15.
14. To'xliiev N., Xaqberdiyev Q. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - B. 146.
15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent: Adolat, 2023. - B. 23-35.